

SHEVA TUSHUNCHASI VA ADABIY TIL BILAN MUNOSABATI

Bobosherova Madina Tolibjon qizi*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich magistranti +998 33 619 96 09*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sheva tushunchasi va uning adabiy til bilan o'zaro munosabati tahlil qilinadi. Shevalarning lug'aviy, fonetik va grammatik xususiyatlari, ularning adabiy til rivojida o'rni hamda o'zaro ta'siri yoritilgan. Xususan, adabiy tilning me'yoriy va uslubiy talablari bilan shevalardagi so'zlashuv uslubi o'rtasidagi farqlar, ularning o'zaro boyish jarayoni va shevalarning dialektologik jihatdan o'rganilishi muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *sheva, adabiy til, dialekt, fonetika, leksika, grammatik xususiyatlar, til me'yori, o'zaro ta'sir.*

O'zbek tili boshqa turkiy tillardan ko'p shevaliligi bilan farqlanadi. O'tgan tarixiy davr ichida o'zbek shevalari to'xtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlashda sheva, dialekt va lahja degan terminlar qo'llanadiki, ularning lug'aviy va terminologik ma'nolarini bilish, albatta, zarurdir.

Sheva forscha ravish, tarz, yo'sin degan ma'nolarni bildirib, fanda biror tilning o'ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik territoriyaga oid qismini anglatadi.

Dialekt so'zi grekcha bo'lib, sheva degan ma'noni anglatib (aslida qabila tili demakdir), aksariyat til xususiyatlari o'xshash bo'lgan shevalarni birlashtiradi.

Lahja ham arabcha so'z bo'lib u ham ravish, tarz, yo'sin, sheva ma'nolarini bildiradi. Dialektologik termin sifatida qadimdan o'zbek tilining taraqqiyotiga asos bo'lgan sheva va dialektlarning eng yirik to'dasini anglatadi².

O'zbek adabiy tili xalq shevalaridan o'ziga kuch oladi, chunki sheva bo'lmasa, adabiy tilimizning kelajagi bo'lmaydi. Hayotiy ozuqa olib turadigan asosi bo'lmasa, har qanday adabiy til vaqt o'tishi bilan o'lik tilga aylanadi. Shuning uchun ham shevalar har qanday adabiy tilning asosiy hamda rivojlanish poydevoridir. U(lar)ni ilmiy adabiyotlarda dialekt va sheva terminlari bilan atash kuzatiladi. Biz u(lar)ni sheva deb, bitta termin bilan atashni o'rinli hisoblaymiz. Shu o'rinda shevashunosligimizning buguni hamda kelajagi haqida o'ylab ko'rib, shuningdek, bu sohada ilmiy ishlari bilan tanishgan bir qancha tadqiqotchi olimlarning fikr-mulohazalarini e'tiborga olib, ushbu ishni tayyorladik.

Balki mamlakatimiz hukumatining ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning tarmoqlariga e'tibor berayotganidek, shevalarimizni XXI asrdan turib ilmiy va amaliy asoslarda o'rganish uchun ularning homiyligi hamda ko'magidagini bunday ulug', muqaddas hamda miqyosi benihoya katta bo'lgan ishni amalga oshirishimiz mumkin. Shu o'rinda

²Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. - T.: 2016. 4-b.

birinchi yurtboshimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asaridagi quyidagi jumlar shevashunosligimizga ham e’tibor zarurligini ta’kidlab turibdi: “Ma’lumki, o’zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o’rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog’liqlik orqali namoyon bo’ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir.

Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so’zlari bilan aytganda: “Har bir millatning dunyoda borligini ko’rsatadigan oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo’qotmak millatning ruhini yo’qotmakdir”. Shevalarni o’rganish til tarixi uchun ham, xalqning tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi. Adabiy tilda yo’q bo’lib ketgan, o’zgarishga uchragan leksik elementlar, ayrim grammatik formalar mahalliy shevalarda saqlanib qolgan bo’lishi mumkin. Shuning uchun dialektologiya til tarixini o’rganish uchun juda ham ahamiyatli. Qadimiy turkiy yozma yodgorliklarining bizga noaniq bo’lgan xususiyatlarini hozirgi o’zbek shevalarining fonetik, leksik, morfologik, leksik-morfologik xususiyatlarini ilmiy asoslarda o’rganish bilan aniqlab, to’ldirish mumkin.

O’zbek lahja hamda shevalarining xususiyatlarini yaxshi bilish, o’rganib olish o’qituvchilar uchun, ayniqsa, “Ona tili va adabiyoti” fanining o’qituvchilari uchun ham juda zarur hisoblanadi. Ushbu fan o’qituvchisi o’z o’quvchilarining nutqidagi, yozuvidagi shevaga oid xususiyatlarni yaxshi bilsa, o’quvchilarning yozma va og’zaki nutqiga xos bo’lgan kamchiliklarini to’g’ri topa oladi. Buning uchun shevalarimiz haqida mukammal ma’lumotga ega bo’lishi shart. Shundagina, o’quvchilarning adabiy til talablari va me’yorlarini o’zlashtirib borish darajasidagi savodxonligi oshib boradi. Chunki o’quvchilar nutqida, ayniqsa, boshlang’ich sinf o’quvchilari yozuvida uchraydigan xatolar shevalarimiz ta’sirida sodir bo’ladigan xatolar jumlasiga kiradi.

O’zbek tili singarmonizmning qisman borligi, kam saqlanib qolganligi bilan barcha turkiy tillardan farqlanadi. Shuningdek, boshqa turkiy tillarda 9(to’qqiz)ta unli bo’lsa, o’zbek adabiy tilida esa 6(olti)ta unli mavjud. Adabiy til hamma shevalar uchun umumiy bo’lgan tildir. U ma’lum qoida va mezonga maromlarga ega bo’ladi, shuningdek, jonli tildagi holatlarni yozuv orqali ham bera oladi (jonli til esa yozuvga ega emas). Adabiy tilning asosida yotadi. Adabiy til shevalardagi har xilliklarga yo’l qo’yilmaydi, uni til qoidalari asosida tartibga soladi. Lekin shevalar adabiy til uchun asos hisoblanadi.

Shevalar har bir xalqning umumiy milliy tili tarkibiga kiradi, lekin ular milliy adabiy tildan o’zining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanadi. Demak, sheva milliy adabiy tilning bir tarmog’i sanaladi. O’zbek adabiy tili murakkab tarixiy jarayonda tashkil topgan. Eski o’zbek tili hududiy tavsifiga ega bo’lgan, shuning uchun eski o’zbek tilida yozilgan (XV asr) asarlarda har qaysi yozuvchi asarlarining tiliga ma’lum bir ma’noda o’z shevasining xususiyatlarini asos qilib olgan edi. Shunday qilib, eski o’zbek tilida yozilgan asarlar umumxalq o’zbek tilida yozilgan bo’lib, ularda turli mahalliy shevalarning xususiyatlari aks etgan edi. Masalan, bir asarda yaqin so’zi

uchrasasa, ikkinchi asarda esa shu ma'noda yovuq so'zi uchraydi. Demak, sheva(lar)ga xos bo'lgan so'zlarda ham ma'noviy o'zgarishlar bo'lib turadi.³

O'zbek adabiy tili ikki shaklda bo'ladi: og'zaki va yozma. Og'zaki adabiy til orfoepik me'yorlarga bo'ysundiriladi. Og'zaki adabiy til davlat ahamiyatiga ega bo'lgan barcha sathdagi rasmiy majlislar, o'qish – o'qitish ishlari, ommaviy majlislarda qo'llanadi. Yozma adabiy til esa, orfografik qoidalar asosida shakllantiriladi va orfografiya qoidalari joriy etilgan o'zbek alifbosiga asoslanadi. Unda bir necha tamoyillardan foydalaniladi: fonetik, fonematik, morfologik, grafik, tarixiy-an'anaviy, ramziy va boshqalar.

Har bir adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega bo'ladi. To'g'ri, o'zbek adabiy tilining shakllanishida shevalarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etadi, lekin ma'lum shevalar adabiy til uchun asos, tayanch (baza) vazifasini bajaradi, ya'ni o'zbek adabiy tili muayyan dialekt va shevalardan leksik, fonetik, grammatik xususiyatlarni adabiy til fakti sifatida oladi hamda o'sha sheva va shevalar guruhi taraqqiy etishi bilan birga taraqqiy etadi, chunki sheva jonli til bo'lib, u doimo rivojlanishda, o'zgarishda bo'ladi. Shu tufayli ham adabiy til shu sheva yoki shevalar guruhi rivojlanishi bilan bog'liq ravishda rivojlanib boradi, aksincha, adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega bo'lmasa, u bora-bora muomaladan chiqib ketadi.

O'zbek tili – ko'p dialektli til. Bu uning murakkab tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi, bugungi o'zbek millati o'tmishda xilma-xil etnik tarkibga ega bo'lganligi bilan belgilanadi. O'zbek milliy tilini tashkil etuvchi turli-tuman shevalarni uch lahjaga birlashtirish mumkin. Bular: 1) qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi; 2) qipchoq lahjasi; 3) o'g'uz lahjasi. Lahjalar o'zaro farqli xususiyatga ega. Bu farqlar lahjalarning har biri dastlab har xil qabila yoki qabila birlashmalarining tili bo'lganligi bilan bog'liq.

O'quvchilar nutqidagi shevaga xos kamchiliklarni tugatishda ehtiyotkorlik lozim. Avvalo, o'quvchilarga xalq shevalariga xos so'zlar tilimizning boyligini, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizning uzviy qismi ekanini uqtirish kerak. Ammo ularni o'rinli-o'rinsiz qo'llayverish, ayniqsa, yozma nutqda shevalarga xos so'zlarni ishlatib yuborishdan saqlanish lozimligini tushintirish lozim.

Nutqda uchraydigan shu yerda so'zi o'rniga shetta, aka so'zi o'rniga oka deb aytish adabiy til me'yorlaridan chekinish hisoblanadi. So'z va jumalarni adabiy tilda aytish va yozishga o'rgatish ucun ona tili o'qituvchisi quyidagilarni amalga oshirish lozim:

adabiy talaffuzni o'quvchilarga har bir darsda grammatik, imloviy va ishoraviy qoidalarga bog'lab izchil o'rgata borish;

o'qituvchining o'zi adabiy tilde aniq va ravon so'zlashi;

ona tili va adabiyot fanidan boshqa fanlardan ham o'quvchilarning adabiy tilda gapirishiga e'tibor qaratish;

³ Enazarov T.J., Karimjonova V.A., Enazarova M.S., Mahmadiyev Sh.S., Rixsiyeva K.G'. O'zbek shevashunosligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2012. 19-b.

o'quvchi nutqidagi shevaga xos bo'lgan so'zlarni aniqlab, bularning adabiy til me'yorlariga to'g'ri kelmasligini, hamma uchun tushunarli emasligini aniq misollar bilan tushuntirib berish. Masalan, adabiy tildagi men, sen, qayerda, cho'mildik o'rniga mahalliy sheva ta'sirida man, san, kaytta, hopittik tarzida ishlatilishning noo'rin ekanligini o'quvchilar anglab olsinlar;

o'quvchilar nutqidagi shevaga xos kamchiliklarni tugatish uchun ularni ko'proq badiiy asarlar o'qishga jalb etish. Chunki o'quvchi qancha ko'p badiiy asar o'qisa, shuncha adabiy til me'yorlarini yaxshi o'zlashtiradi.⁴

Shevalar tili milliy til taraqqiyotining muhim manbalaridan biri bo'lib, ular xalqning og'zaki ijodi, urf-odati, turmush tarzini ifoda etuvchi boy leksik qatlamni o'zida mujassam etadi. Ushbu tadqiqotda shevalarning leksik xususiyatlari va ularni leksikologik jihatdan tahlil qilish masalalari o'rganildi. Aniqlanishicha, shevada mavjud bo'lgan ko'plab so'zlar adabiy til leksikasini boyitishda muhim rol o'ynaydi. Leksikologiya fanining asosiy yo'nalishlari orqali sheva so'zlarini tahlil qilish, ularning kelib chiqishi, ma'no qatlamlari va adabiy til bilan munosabatini aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. - T.: 2016. – B. 150.
2. Enazarov T.J., Karimjonova V.A., Enazarova M.S., Mahmadiyev Sh.S., Rixsiyeva K.G'. O'zbek shevashunosligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2012. – B.184.
3. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.: 1978. – Б. 230.
4. Yoqub Saidov. O'zbek dialektologiyasi. O'quv qo'llanma. – Buxoro: Durdona, 2021. – B. 95.

⁴ Yoqub Saidov. O'zbek dialektologiyasi. O'quv qo'llanma. – Buxoro: Durdona, 2021. 20- b.